



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

"Filologiya va pedagogika"
ilmiy-metodik jurnali
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 30-noyabr dagi

364/5-qarori bilan
10.00.00 – Filologiya va
13.00.00 – Pedagogika fanlari
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2025-yil
12 (16)-son**

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИМ
ЭЛЕКТРОННЫМ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu sonda

Jurnalistika
bir qadam oldinda
yurishi zarur

4
b
e
r

O'zbek shevalarida
to'y-marosim nomlarini
ifodalovchi leksik birliklar


8
b
e
t

"Z" avlod
isyonlarining
ijtimoiy-madaniy va
siyosiy kontekstdagi
tahlili

44
b
e
t

Oliy ta'limda adabiy
tahrirni o'qitishning
dolzarb muammolari:
ona tili ta'limi tahlili

76
b
e
t



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

**2025-yil
12 (16)-son
e-ISSN 3060-4885**

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova
Muxlisa Do'stmuhamedova

SAHIFALOVCHI
Gulnoza Valiyeva

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 15.11.2025 da
nashr etildi.

MUASSIS
O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

E'zozxon Karimova

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Farhod Boqiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

Azizbek Turdiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

Farrux Jabborov

*"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" –
"Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri*

10.00.00 – FILOLOGIYA

Baxtiyor Mengliyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchisi-professori,
filologiya fanlari doktori*

Baxtiyor Doniyorov

*Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Nurafshon filiali
professori, filologiya fanlari doktori*

Anatoliy Lixodzievskiy

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Oksana Gibraltarskaya

*O'zbekiston Milliy universiteti
professori, filologiya fanlari doktori*

Sherzod Atamuradov

*filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Ranusha Atayeva

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti katta
o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Mohichexra Boltayeva

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
dotsenti, pedagogika fanlari doktori*

Muxtarbay Kurbanov

*Nukus davlat pedagogika instituti
dotsenti, filologiya fanlari doktori*

Iroda Nasimova

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Dilmurod Teshaboyev

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich
ta'lim uslubiyati kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
professori, pedagogika fanlari doktori*

Gulnora Mansurova

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori*

Xadicha Muxitdinova

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

G'ofir Hamroyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchisi-professori,
pedagogika fanlari doktori*

Sevara Ziyayeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Indira Narkulova

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Abduvali Daminov

*O'zbekiston Milliy universiteti
ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar
kafedrasida katta o'qituvchisi*

Gulnoza Uzokova

pedagogika fanlari nomzodi

Lola Akramova

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti
o'zbek tili va xorijiy tillar, pedagogika
kafedrasida dotsenti*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024-yil 30-noyabrda 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Halim Saidov. Jurnalistika bir qadam oldinda yurishi zarur	4
Abduraxmon Madaminov. Xususiy birikuvchi so'z birikmalari va ularning nutqiy voqelanishi	6
Темур Дилшодбеков. Языковая норма в эпоху интернета: от традиции к динамике (на материале русского и узбекского языков)	8
Oybek Nurjanov. O'zbek shevalarida to'y-marosim nomlarini ifodalovchi leksik birliklar	10
Dildora Tolipova. O'zbek yozma adabiy manbalaridagi lakunalar va ularning tarjima masalalari	12
Насиба Хакимова. Особенности образования психологических терминов в современной словообразовательной системе	13
Ирода Алимбаева. Язык – средство общения русского и узбекского народа	14
Maxfuza Artikova. Ispan gazetalarida bosh muharrirga xat janrining lisoniy xususiyatlari	16
Xakimboy Matyakubov. Rang nomlari ishtirokidagi onomastik birliklarning qiyosiy tahlili (o'zbek va ingliz tillari misolida)	18
Anvar Ibayev. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning derivatsion potentsiali: struktur-semantik tahlil	20
Maxsud Kurbaniyazov. Oltin O'rda o'zbek adabiyotining estetik tamoyillari	22
Gulruh Ne'matova. Milliy matbuotda xalqaro turizmni yoritishga bag'ishlangan materiallar problematikasi tizimi va tipologiyasi	24
Orasta Omonova. "Bobur va Abulfazl" risolasi va turkiy mumtoz adabiyotdagi matn autentikligi masalasi	25
Fotima Djalaletdinova. Munozara janrining masal bilan uyg'unlashuvi	27
Shaxnoza Uzoqova. Tilning xilma-xilligi – inson tafakkurining namoyon bo'lish qonuniyatlarini shakllantiruvchi omil	28
Sherzod Atamuradov. Inklyuziv muloqotda voqelanuvchi verbal birliklarning pragmatik tabiati	30
Chari Chariev. Qoraqalpog'istonlik turkmanlar tilidagi fonetik o'zgarishlar	32
Nilufar Xaitova. Hamid Olimjon ijodida ilm va nafosat uyg'unligi	35
O'tkirbek Muhammad Sobir. Manzum hadislar poetikasida badiiy san'atlarning estetik ahamiyati	37
Abdijabbor Amanov. Murakkab sintaktik butunliklarda ko'chma ma'holarning stilistik-funksional talqini	40
Farruxbek Olim. Alisher Navoiy ijodida Abdurahmon Jomiy tavsifi va adabiy ta'sir masalalari	42
Nodirabegim Jamolova. "Z" avlod isyonlarining ijtimoiy-madaniy va siyosiy kontekstdagi tahlili	44
Istoda Rasulova. Kontrastiv tilshunoslik va o'quv leksikografiyada ikki tillilikning nazariy hamda amaliy jihatlari	46
Inobat Madraximova. Poetik tafakkurda yetakchi g'oya va obrazlar tizimi	47
Dilorom Xodjayeva. Davlat imijini yaratishda medianing o'rni	49
Navruza Mamajonova. Topishmoqlar yaratilishining kognitiv asoslari	50
Munira Mengliyeva. Leksik sath birliklarini aspektual ma'no ifodalovchilar sifatida leksikografik talqin qilish tamoyillari	51
Shahlo Karimova. Zarif Toshkandiyning ma'rifiy qarashlari va adabiy merosi	54
Alokhon Khaitova. Semantic Features of Artificial Intelligence Terminology in the English Language	55
Zulfizar Kochkorova. Challenges in Cross-Linguistic Transfer of Lexical Units	57
Munisa Tursunova. Intentions, Politeness, and Persuasion: Pragmatic Strategies in Argumentative Interaction	58
Zarnigor Sobirova. Ingliz va o'zbek tilidagi she'riy matnlarda chegaralangan leksik qatlamning uslubiy vazifalari	60
Odinaxon Azamatova. Artonimlarda madaniy kodlarning ifodalanishi	61
Feruzaxon Murathodjaeva. Diskursni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar	63
Dovud Xo'jaqulov. O'tkir Hoshimov asarlarida insonparvarlik g'oyasining badiiy ifodasi	65
Iroda Rasulova. Psixologiyada shaxsdagi agressiyani aniqlash jarayonining ilmiy-nazariy asoslari	67
Amira Aminova. Madaniy ma'no tashuvchi leksik birliklarda konseptlar tadqiqi	68
Shohsanam Davronova. Erkin Vohidov she'riyatida shoiralar ijodiga munosabat ifodasi	70
Solijon Azizov. Inson tafakkurida "jinoyat" va "adolat" konseptlarining ijtimoiy-madaniy aks etishi	71
E'tibor YAXSHIYEVA. Pedagogik terminlarning shakllanish jarayoni va lingvistik xususiyatlari	74

Shohsanam DAVRONOVA,

*Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA SHOIRALAR IJODIGA MUNOSABAT IFODASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada iste'dodli ijodkor Erkin Vohidovning zamonaviy o'zbek she'riyati namoyandalari, ya'ni shoirlar ijodiga munosabati haqida so'z borgan. Shoirning she'riyat, badiiy ijod va ijodkor shaxsiyati haqidagi qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: she'riyat, badiiy ijod, shoir, shoirlar ijodi, badiiy talqin, badiiy mahorat.

Anotation. This article discusses the attitude of the talented artist Erkin Vohidov to the representatives of modern Uzbek poetry, namely the work of poetesses. The poet's views on poetry, artistic creativity, and the creative personality are analyzed.

Keywords: poetry, artistic creativity, poet, work of poets, artistic interpretation, artistic skill.

Аннотация. В этой статье рассматривается отношение талантливого писателя Эркина Вахидова к творчеству представителей современной узбекской поэзии, а именно поэтесс. Проанализированы взгляды поэта на поэзию, художественное творчество и личность творца.

Ключевые слова: поэзия, художественное творчество, поэт, творчество поэтесс, художественная интерпретация, художественное мастерство.

Taniqli o'zbek shoiri Erkin Vohidovning ustozlari, qalamkash do'stlariga bag'ishlab yozilgan she'rlari alohida sirani tashkil etadi. "Abay", "Ustoz Habibiya", "Shoirlik (Ustoz Mirmirni izlab)", "Shoir (Husniddin Sharipovga)" kabi she'rlar shular jumlasidandir. Bunday she'rlarida ijodkor qalam ahli bilan hamfikir, hammaslak ekanligini ifodalaydi. Ular bilan ijod olamining sirlari, mashaqqatlari to'g'risida fikrlashishni istaydi, ular ijodiga e'tiborini namoyon etadi. "Ammo she'r uchun mukammal ta'rif topib bo'lmaganidek, shoirlik qismatini ham to'la-to'kis ravishda, muxtasar so'z bilan anglatish qiyin. Buni faqatgina she'riy kayfiyat iztiroblarini boshidan kechirgan, "so'z durlarini terish" bilan mashg'ul bo'lgan odamgina anglaydi. Ko'nglini qog'ozda aks ettirish uchun munosib so'z izlagan, so'zlarni tush ko'rgan kishigina his etadi" [2]. Shu boisdan ham Erkin Vohidov o'ziga qismatdosh bo'lgan insonlarga – shoirlarga murojaat qiladi, ular bilan dardlashish, sirlashishni niyat qiladi. Uning she'riyatida adabiy jarayon, ijodiy aloqalar masalalari teran talqin etiladi. Shoir insonning shaxsi va badiiy olami yaratiladi. "Shoir she'rlari-la bu inson jumboqlarga to'la sayyora sifatida talqin etiladi va shoir uning qalbi haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi, kashfiyotlar qiladi" [3: 368].

Erkin Vohidovning o'ziga zamondosh bo'lgan ijodkorlar orasida shoirlar adabiy faoliyatiga iliq, samimiy munosabatini ifoda etuvchi she'rlari uchraydi. Bu borada "Qorxat (Shoira qizlarga)", "Teranlik (Shoira Zulfiyaga)", "Shoira Said Zunnunovaga" kabi she'rlar misol bo'ladi. Shoirning shoirlarga bag'ishlangan she'rlarida adabiy hayot va ijodkor olami haqidagi qarashlari jamlangan.

Ma'lumki, XX-XXI asrlarda o'zbek she'riyati olamiga ko'plab iste'dodli ayol ijodkorlar kirib kela boshladi. Ularning ijodi orqali milliy she'riyatimiz ayollar qalbi, iztiroblari, muhabbat va umidvorlik tuyg'ulari, yaratuvchanlik fazilatlarini teran tasvirlashga erishdi. Ayollarning ichki olamini chinakam his etib, tasvirlaydigan jins vakillarining sa'y-harakatlari boisdan o'zbek adabiyotida nafis ohanglar, rangin kechinmalar ifodasi namoyon bo'ldi. Erkin Vohidov "Qorxat (Shoira qizlarga)" she'ri orqali she'riyatga ixlosmand, adabiy jarayonda faol, barchaga birdek xayrixoh, ayollar she'riyatiga befarq bo'lmagan, samimiy ijodkor ekanligini ko'rsatdi. She'r ijodkorlarning nomini tilga olinganligiga ko'ra, Munisning "She'r ul tig'i dudamdurkim..." deb boshlanuvchi g'azalini eslatadi. "Qorxat (Shoira qizlarga)" she'rida lirik qahramon – jo'shqin va ruhiyati mutoyibaga moyil inson, yer-u falakni to'ldirib yog'ayotgan qor uni ta'sirlantiradi va u xalq orasidagi odatni tark eta olmay, do'stlariga qorxat yozishga qaror qiladi. Odatda, qorxat

yozuvchi do'stidan birinchi bo'lib, nimani so'rasa, xatni qabul qiluvchi uni amalga oshirishi shart. An'anaga ko'ra, bunday xat do'stlik salomi bilan boshlanadi.

Qor yog'ar, qorxat ila, xullas kalom,

Shoira qizlarga yo'llaymiz salom.

Sizga, ey Gulchehra qizlar, E'tibor,

Aytamiz ko'ngilda orzu neki bor.

Oy Halima ham Malika, Tursunoy,

Ey chiro-yu fayzga boy-u she'ri soy,

Sizga dildan eng samimiy ehtirom,

Yangi yilning tabrigi ham assalom!

Endi kelsak so'zning indallosiga,

Ya'ni qorxatning asl ma'nosiga:

Yangi yilda davra tuzmoq farz bo'lur,

Kim yutlsa, bir ziyofat qarz bo'lur.

Qorxat eltgan elchimizni tutsangiz,

Tan berurmiz, qarz bo'lurmiz, yutsangiz [4: 28].

Ko'rinish turibdiki, qorxatda shoira qizlar yangi yilda ziyofat hozirlashga chorlangan. She'rning keyinigi bandida ziyofat uchun sabab bo'luvchi shoirlarning yutuqlari tilga olinadi. Navbatdagi qismda esa qizlar davrasida tayyorlanadigan ziyofat dasturxon ta'rif keltiriladi. Bu dasturxon endi oddiygina dasturxon emas, balki she'riyat bilan totli bo'lgan taomlar hozirlangan dasturxondir. Unda qizlarning ol yanog'i kabi olma, anor, ko'zlaridek charos, xandonlarini eslatuvchi pista, yuzlaridek qulgan shirmoy, qobog'lari yanglig' bodom, dudog'lari kabi murabbolar, tola sochi kabi lag'mon, sochdagi bargakda ko'k bodring, oshiqdar bag'ridek tilingan torvuz, qovunlar, eng muhimi, bularning barini she'riyat totli qiladi. Ammo bu ne'matlarning barchasi bir tomon-u, ularning barisidan she'r soz, shu boisdan ham oppoq sahardan toki shom she'r bilan sarfarozi aylash ham bundagi muhim shartlardan biri qilib qo'yilgan. "Ijodkor asarlarining lirik qahramoni o'ziga xos tabiatli, o'zbekona tafakkur va xarakterga ega bo'lgan insondir" [1: 96]. Ushbu she'rida ham uning o'zbek millatiga xos madaniyati, ayollarga bo'lgan hurmati, o'zbekona odatlarni tasavvur qilishi aks etgan. Bu davraga shoir bir necha hamrohlari bilan borishni mo'ljal qiladi. O'lmas-u Abdulla, Ibrohim, Shoyusuf, Barot, Muhammad, Husniddin, Rauf, Omon, Jamol, Oxunjon, To'lqin, Anvar, Aziz kabilar bu davraga xizmat uchun shaylangan. Har biriga bir vazifa yuklanagan: obkashda tongdan suv tashish, o'qlog' tutib xamir yoyish, chuchvara tugish, o't yoqish, tandir yoqish, "Hay" deb uf tortib kabob

yelpish, chovlini topmay xunob bo'lish kabi yumushlarning bajarilish jarayoni yengil yumor asosida shoirning nozik ifodasi orqali tasvirlab beriladi. So'ngida maktubni yetkazish ishi uchun mas'ul belgilash ham shoirning yodidan ko'tarilmayli. Elchi qilib ishning ko'zini biladigan mulla "Mushtum" belgilanadi. "Qorxat (Shoira qizlarga)" – sujetli she'rning yorqin namunalaridan biri. Qizlarga qorxat yozish va ularga shartlar qo'yish, bu marosimni tashkil etish jarayonlari tasviri hazil-mutoyiba yo'sinida tasvirlangan. Bu ziyofat uning uchun aslida bir bahona, maqsad – she'r tinglash. Bu hodisalarning bari qorxat yozuvchining tasavvurida jonlanadi.

Umuman olganda, Erkin Vohidovning shoir shaxsiyati va adabiy jarayonga munosabati aks etgan ijod namunalarini

qatorida zamonaviy she'riyatning ilg'or va faol namoyandalari bo'lgan shoirlar ijodi ta'rifiga bag'ishlangan she'rlari alohida ajralib turadi. Bunday she'rlarida shoirning zamondoshlari ijodiga qiziqishi, e'tibori namoyon etiladi, ma'rifiy qarashlari bayon qilinadi, kitobxon badiiy ijod olamining sirlari bilan tanishtiriladi.

"Qorxat (Shoira qizlarga)" she'ri Erkin Vohidovning adabiy jarayonga munosabati, samimiyati, she'riyatga oshnoligi, mushoiraga moyilligini namoyon etib turadi. Eng muhimi, shoirning adabiyot bilan bog'liq bunday dilbar davralar haqidagi qarashlari o'ziga xos ifoda uslubi, tasavvur olamining kengligi hamda badiiy ifodalash mahorati bilan yoritib berganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'aybulloyevna D.S. Erkin Vohidov ijodida milliylik ifodasi //Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 2025, №. 5. – C. 96-101.
2. Karim B. Adabiy fikr javhari yoxud Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlariga bir nazar. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/bahodir-karim-adabiy-fikr-javhari.htmlb>.
3. Sharafiddinov O. "El ustozim, men esa tolib" (Shoirning 50 yoshga tshlishi munosabati bilan) / To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2018. – B. 368 –77.
4. Vohidov E. Saylanma. Ikkinchi jild. She'r dunyosi. – Toshkent: Sharq, 2001. – 352 b.

Solijon AZIZOV,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

INSON TAFAKKURIDA "JINOYAT" VA "ADOLAT" KONSEPTLARINING IJTIMOYIY-MADANIY AKS ETISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada "jinoyat" va "adolat" konseptlarining badiiy diskursdagi kognitiv, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari har tomonlama tahlil etilgan. Mazkur konseptlarning til, madaniyat va tafakkur tizimidagi o'rnini, ularning metaforik ifodalanishi hamda semantik dinamikasi yoritilgan. Shuningdek, "jinoyat" konsepti ijtimoiy buzilish va axloqiy chetga chiqish belgisi sifatida, "adolat" esa tenglik va haqiqat timsoli sifatida izohlanadi. Maqolada badiiy diskurs inson ongining aksiologik modeli sifatida talqin etilib, konseptlar orqali ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarining shakllanish mexanizmi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: jinoyat, adolat, konsept, tushuncha, metafora, lingvokognitiv model, badiiy diskurs, ijtimoiy qadriyat, kognitiv-pragmatik realizatsiya, madaniyat.

Annotation. This article comprehensively analyzes the cognitive, pragmatic, and linguocultural features of the concepts of "crime" and "justice" in literary discourse. The role of these concepts in the system of language, culture, and thought, their metaphorical expression, and semantic dynamics are illuminated. Also, the concept of "crime" is interpreted as a sign of social decay and moral deviation, while "justice" is interpreted as a symbol of equality and truth. The article interprets artistic discourse as an axiological model of human consciousness and shows the mechanism of forming social and spiritual values through concepts.

Keywords: crime, justice, concept, notion, metaphor, linguo-cognitive model, literary discourse, social values, cognitive-pragmatic realization, culture.

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализированы когнитивные, прагматические и лингвокультурологические особенности понятий «преступление» и «справедливость» в художественном дискурсе. Освещена роль этих концептов в системе языка, культуры и мышления, их метафорическое выражение и семантическая динамика. Также понятие «преступление» интерпретируется как признак социального разложения и морального отклонения, а «справедливость» – как символ равенства и истины. В статье художественный дискурс интерпретируется как аксиологическая модель человеческого сознания и показывается механизм формирования социально-духовных ценностей через концепты.

Ключевые слова: преступление, справедливость, концепт, понятие, метафора, лингвокогнитивная модель, художественный дискурс, социальные ценности, когнитивно-прагматическая реализация, культура.

Zamonaviy tilshunoslikda inson tafakkurining lisoniy ifodasi, xususan, konseptlarning tilda, madaniyatda va ongda namoyon bo'lish jarayonlarini tadqiq etish eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Til orqali shakllanadigan konseptlar insonning dunyoni idrok etish va baholash mexanizmini aks ettiradi, shu bois ular ijtimoiy-madaniy tafakkurning muhim ko'zgusi sifatida qaraladi. Ayniqsa, "jinoyat" va "adolat" kabi konseptlar jamiyat hayotining huquqiy, axloqiy va ma'naviy qatlamlarini o'zida mujassamlashtirganligi sababli ularni badiiy diskurs doirasida o'rganish nihoyatda muhimdir. Chunki, badiiy matn insoniy ongning hissiy va aksiologik qatlamlarini jonlantiradi, konseptlarning kognitiv

mazmunini kontekst, metafora, personajlar nutqi va ideologik pozitsiyalar orqali ochib beradi. Shu nuqtayi nazardan, "jinoyat" konsepti *jamiyatdagi buzilish, axloqiy chetga chiqish, insoniy zaiflikni ifodalasa, "adolat" konsepti tiklanish, muvozanat va haqiqat tantanasini bildiradi.* Ushbu ikki konseptni kognitiv va pragmatik yondashuv asosida o'rganish, ularning lingvistik namoyon shakllari, madaniyatlararo o'zgarishlari hamda badiiy kontekstdagi ma'no dinamikasini ochib berish orqali inson tafakkurining ijtimoiy va axloqiy modellarini anglashga keng imkon yaratadi.

Avvalambor, to'rt asosiy til birligi – tushuncha, konsept, termin va atama xususida so'z yuritsak, chunki

